

# Energetika xavfsizligi oyligi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi

// 29.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/energetika-xavfsizligi-oyligi-doirasida-belgilangan-vazifala>



Sanoat korxonalari faoliyatining barqarorligi bevosita energiyani tejash va samaradorligini oshirish usullarining joriy etilganiga bog'liq.

Mazkur yo'nalishda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining 2024-2025-yil kuz-qish mavsumi davomida barqaror ishlashi va Energetika xavfsizligi darajasini oshirish borasidagi ishlarni kuchaytirish, yoqilg'i-energiya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish evaziga energiya samaradorligini oshirish choralari ko'rilmoqda.



Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ bosh energetigi Farhod Boboyev jamiyatning Navoiy viloyatida joylashgan sanoat korxonalarini "Navoiyazot" AJ va "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ da Energetika xavfsizligi oyligi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini bevosita tahlil qildi.



Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joiz, joriy yilning sentabr-noyabr oylarida "O'zkimyosanoat" AJ bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi hisobiga 133,1 mln m<sup>3</sup> tabiiy gaz va 182,3 mln kVt elektr energiyasi iqtisod qilindi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati